

**O‘ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK ISHINING DAVLAT BOSHQARUVIDA  
AMALGA OSHIRILISHI**

**Naurizbayeva Shyryn Baxtiyor qizi** – magistrant

[nawrizbaeva09z@icloud.com](mailto:nawrizbaeva09z@icloud.com)

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**УПРАВЛЕНИЕ БИБЛИОТЕЧНЫМ ДЕЛОМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УРОВНЕ**

**Наурызбаева Ширин Бахтиёр кизи** – магистрант

*Нукусский филиал Государственного института искусств и культуры Узбекистана*

**IMPLEMENTATION OF LIBRARY MANAGEMENT IN UZBEKISTAN AT THE STATE LEVEL**

**Nauryzbaeva Shyryn Bakhtiyor kzy** – Master's student

*Nukus branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan*

**Tayanch so‘zlar:** kutubxonachilik ishi, davlat boshqaruvi, axborot-resurs markazlari, kutubxona tizimi, axborot xizmati, normativ-huquqiy baza, raqamli texnologiyalar, o‘qish madaniyati, kutubxona fondi, axborot jamiyati.

**Rezyume.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda kutubxonachilik ishining davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilishi, kutubxona tarmog‘ini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va normativ-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, respublikada axborot-resurs markazlari va kutubxonalar faoliyatini uyg‘unlashtirish, ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, fondlarni boyitish va o‘quvchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada davlat boshqaruvining kutubxona tizimini rivojlantirishdagi roli, kutubxona xizmatining jamiyat axborot madaniyatini yuksaltirishdagi ahamiyati va kutubxona tarmog‘ining istiqboli bo‘yicha ilmiy-tahliliy fikrlar berilgan.

**Ключевые слова:** библиотечное дело, государственное управление, информационно-ресурсные центры, библиотечная система, информационная служба, нормативно-правовая база, цифровые технологии, культура чтения, библиотечный фонд, информационное общество.

**Резюме.** В данной статье анализируется реализация библиотечного дела в системе государственного управления в Узбекистане, а также государственная политика и нормативно-правовые основы, направленные на развитие библиотечной сети. Кроме того, будут рассмотрены вопросы координации деятельности информационно-ресурсных центров и библиотек в республике, внедрения в них современных технологий, обогащения фондов и повышения качества обслуживания учащихся. В статье представлены научно-аналитические соображения о роли государственного управления в развитии библиотечной системы, значении библиотечных услуг в повышении информационной культуры общества и перспективах библиотечной сети.

**Key words:** library science, public administration, information resource centers, library system, information service, regulatory framework, digital technologies, reading culture, library fund, information society.

**Summary.** This article analyzes the implementation of librarianship in the public administration system in Uzbekistan, state policy aimed at developing the library network, and its regulatory and legal framework. At the same time, issues of coordinating the activities of information resource centers and libraries in the republic, introducing modern technologies into them, enriching their collections, and improving the quality of student services will be considered. The article presents scientific and analytical views on the role of public administration in the development of the library system, the importance of library services in enhancing the information culture of society, and the future of the library network.

"Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2011-yil 13-aprel kuni Prezident tomonidan tasdiqlanib, 14-aprel kuni matbuotda e‘lon qilinishi bilan mamlakatimiz aholisiga axborot-kutubxona xizmatini yuqori, jahon standartlariga mos darajada tashkil etishga, soha mutaxassislarining samarali faoliyat olib borishlari uchun huquqiy mexanizmlar bilan mustahkamlandi. Qonunning

qabul qilinishi bilan axborot-kutubxona faoliyati sohasida davlat siyosatini belgilash va axborot-kutubxona tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan boshqarish mexanizmi yaratildi. Shuningdek, Qonunning asosiy maqsadi axborot-kutubxona faoliyatini amalga oshirish va rivojlantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, fuqarolarning axborot-kutubxona tashkilotlarida saqlanayotgan ma‘lumotlardan

erkin foydalanishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini ta'minlashdan iborat ekanligi bilan mamlakatni modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan aniq vazifalarni amalga oshirishda asosiy omillardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Vazirlik - davlatning markaziy ijro etuvchi hokimiyat organi bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy faoliyatning ayrim tarmoqlarida davlat boshqaruvini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi 2003-yil 9-dekabrda PF-3358-sonli Farmoniga muvofiq, vazirliklar Respublika davlat boshqaruvi organlari ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq, yangi vazirliklarni tuzish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatiga kiradi. Bu haqdagi Prezident farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan tasdiqlanadi. 1. O'zbekiston Respublikasida Vazirlik davlatning markaziy boshqaruv organi, davlat kengashining muhim bo'limi. Asosiy vazifasi - iqtisodiyotning muayyan tarmog'iga, ijtimoiy-madaniy qurilish va ma'muriy-siyosiy ishlarga rahbarlik qilishdan, o'ziga topshirilgan tarmoqning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Vazirliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rahbarligida faoliyat yuritadi va sohaga oid barcha masalalarni o'z vakolati doirasida hal etadi. Vazirlikni hukumat tarkibiga kiruvchi vazir boshqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Kengashi a'zolarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi.

Vazirlik respublika kutubxonalari faoliyatini belgilab beruvchi Qoidalar, yo'riqnomalar, normativlar va boshqa materiallarni tasdiqlaydi, zarur hollarda ularni tegishli tashkilotlar bilan muvofiqlashtiradi. 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarorida respublika axborot-kutubxona faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Tashkilotlararo kengash tarkibini tuzishni tasdiqlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashiga bir oy ichida qoida rejasini ishlab chiqib tasdiqlashni topshirdi. Axborot-kutubxona faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Tashkilotlararo kengash respublikada kutubxona faoliyatini rivojlantirish islohotlari va uning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, kutubxonachilik,

bibliografiya sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari mavzularini tasdiqlaydi, kutubxonalarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi, respublikada kutubxonalar o'rtasida ilg'or ish tajribalari almashinuvini tashkil etadi.

Shunday qilib, respublika axborot-kutubxona tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Tashkilotlararo kengashga bir oy muddatda belgilangan tartibda kutubxonalarni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tarkibidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi tasarrufiga bepul o'tkazilishini va oqilona qayta tashkil etilishini, ikki oy muddatda barcha kutubxona fondlari zamonaviy talablarni hisobga olgan holda qayta ro'yxatdan o'tkazilishi uchun ekspert komissiyalari tuzilishini, ikki oy muddatda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari faoliyatini belgilab beruvchi tegishli normativ hujjatlar ishlab chiqilishini, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarini tanlov asosida yetuk mutaxassislar bilan to'ldirishni topshiriq etib belgiladi. Demak, axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u axborot-kutubxona faoliyati sohasida maxsus vakolat bergan davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi;

Axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;

Axborot-kutubxona tashkilotlarini ochish, qayta tashkil etish va tugatish tartiblarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Axborot-kutubxona resurslarini noyob va qimmatbaho axborot-kutubxona resurslari jumlasiga kiritish tartibini, shuningdek, ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;

axborot-kutubxona faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

axborot-kutubxona tashkilotlarining hisobini yuritadi;

yig'ma elektron katalogni tuzadi va yuritish tartibini tasdiqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tashkilotlararo kutubxona komissiyasi zimmasiga:

- O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi rivojlanishining istiqbol rejasini ko‘rib chiqish; kutubxona tashkilotlarining o‘zaro aloqasi va birlashuvini ta‘minlovchi takliflar ishlab chiqish;

- kutubxonalarning nashriyotlar, kitob savdosi tashkilotlari, ilmiy texnika axborot organlari, radio, televideniye va boshqa axborot vositalari bilan o‘zaro aloqasini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- respublika yagona kutubxonalararo abonement tizimi va kutubxona fondlarini depozitar saqlash tizimini tuzishga, kutubxonalar fondini to‘ldirishda takrorlanishlarning oldini olishga, yagona ma‘lumot-axborot fondi bazasida kutubxonalar faoliyatini uyg‘unlashtirishni ta‘minlashga;

Kitobxonlar va kutubxonalar talabini hisobga olgan holda kitoblarni qayta nashr etish, uning adadini belgilash, yangi kitoblar bilan to‘ldirishga oid bo‘lgan takliflar bilan birgalikda kutubxonalarning kitob fondlarini shakllantirish va yuritish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- kutubxonachi kadrlar yetishib chiqishini rag‘batlantirish, kutubxonachilik va bibliografiya ishi bo‘yicha metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va boshqa bir qator vazifalar yuklatilgan.

Boshqaruvning davlat jamoatchilik organlari kutubxonachilik xizmatiga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda kutubxonachilik xizmati ko‘rsatishning samarali tizimini tuzishga zarur mablag‘lar va jamg‘armalar yaratishni asoslaydi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari va byudjetlarini ko‘rib chiqishda kutubxonalar ehtiyojlarini himoya qiladi va ularni maqsadga muvofiq ta‘minlashga erishadi, kutubxonachilik ishi rivojiga ajratilgan mablag‘larning to‘liq va samarali sarflanishiga ko‘maklashadi, kutubxonalar va ularning boshqaruv organlari tashabbusini, manfaatini ro‘yobga chiqaruvchi yangi xo‘jalik mexanizmini yaratish ishlari bilan shug‘ullanadi. axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish bir tomondan texnologik jarayonlardan iborat bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu ishlar ijodiy, pedagogik, psixologik xarakterga ega.

Axborot-kutubxona xizmatini yanada yaxshilashni yo‘lga qo‘yar ekanmiz, maqsadimiz axborot-kutubxona tashkilotlarida aholi va jamoatchilikning ta‘sirini oshirish, insonlarda axborot-kutubxona tashkilotlari va kutubxona mutaxassislari haqidagi ijobiy fikrni boyitish, jamiyat hayotida axborot-kutubxona tashkilotlari va kutubxonachilarning o‘rni muhim ekanligini ko‘rsatib berish va bunga ishontirishdan iborat. Chunki axborot-kutubxona tashkilotlarisiz, axborot va kitobsiz jamiyat taraqqiyotini, kelajagini tasavvur qila olmaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Axborotlashtirish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining qonuni. 11.12.2003 y. 560-11 // O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami. 2004 y. 6-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: «O‘zbekiston», 2018.
3. Sharipova D. (2023). MÁLIMLEME – KITAPXANA MÁKEMELERINDE INNOVACIYALIQ ISKERLIKTI SHÓLKEMLESTIRIW. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(12), 26–30. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/24073>
4. Aytimova D. Кутубхона ахборот муассасалари фаолиятини ривожлантиришда кутубхоначи кадрларнинг роли. <https://hemis.uzdsmi-nf.uz/science/publication-scientifical-edit?id=339>
5. «Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan taminlashni tashkil etish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 20.06.2006 y. PQ-381 // Xalq so‘zi, -2006 yil, 20 iyun.